



AYOL MIGRANT TUSHUNCHASI VA GLOBAL MIGRATSIYADAGI O‘RNI

Ravshanova Malika Asror qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ORCID: 0009-0006-5780-4669

malikarav@icloud.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro migratsiya jarayonlarining nazariy-huquqiy asoslari hamda ularning gender aspektidagi transformatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayol migrantlarning huquqiy himoyasizligi, ularga nisbatan o‘rnatilayotgan institutsional to‘siqlar hamda kiber-makonda yuzaga kelayotgan yangi turdagi xavf-xatarlar tizimli o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada migratsiya oqimlarining ayollashuvi tendensiyasi va ushbu jarayonning huquqiy oqibatlari bo‘yicha tegishli xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, gender, ayollar migratsiyasi, qaytish migratsiyasi.

“Migratsiya” atamasi lotincha “migratio” va “migro” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “ko‘chib o‘tyapman” yoki “ko‘chib ketyapman” ma‘nosini anglatadi⁸⁰. Xalqaro migratsiya tashkiloti migratsiyani “odamlarning odatiy yashash joyidan xalqaro chegara orqali yoki davlat chegaralari ichida ko‘chib o‘tishi” deb ta‘riflaydi⁸¹. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti “odatdagi yashash mamlakatini o‘zgartirgan har qanday shaxs”ni xalqaro migrant deb ta‘riflaydi. Bu ta‘rif faqatgina “dam olish, do‘stlar va qarindoshlarnikiga tashrif, biznes, tibbiy muolajalar va diniy ziyorat” tufayli yuzaga kelgan migratsiyani istisno qiladi⁸². Ushbu jarayonni tadqiq etishda migratsiya faktori tushunchasi markaziy o‘rin tutgan⁸³. Shundan kelib

⁸⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 588-589.

⁸¹ Migratsiya sohasidagi atamalar lug‘ati. Xalqaro migratsiya huquqi. – Jeneva: Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM), 2019. – B. 61-62. URL: https://documentation.lastradainternational.org/lisidocs/Inernational%20migration%20law_25.pdf

⁸² Qaytish migratsiyasi: Xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy o‘ziga xos xususiyatlari. – Almati: Xalqaro migratsiya tashkiloti – BMT migratsiya Agentligi, 2020. – B.17.

⁸³ Migratsiya faktori — lotincha “omil” so‘zi “qiluvchi”, “ishlab chiqaruvchi” ma‘nosini anglatib,



chiqqan holda, aholini bir hududdan ikkinchi hududga ko‘chib o‘tishga majbur qiluvchi fundamental omillarni shartli ravishda quyidagi uchta asosiy guruhga ajratishimiz mumkin:

— iqtisodiy omillar: mazkur guruhga bandlik darajasini oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda moddiy farovonlikni yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan davlatlararo yoki mintaqalararo mehnat migratsiyasi kirgan. Bu jarayon, odatda, ishchi kuchi ortiqcha bo‘lgan hududlardan investitsion jozibadorligi yuqori bo‘lgan qabul qiluvchi hududlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi;

— siyosiy-huquqiy omillar: ushbu guruh siyosiy beqarorlik, etnik yoki diniy ziddiyatlar, shuningdek, davlat chegaralarining transformatsiyasi natijasida yuzaga keladigan majburiy migratsiyani o‘z ichiga olgan. Harbiy harakatlar ketayotgan hududlardan aholining xavfsiz geografik areallarga ko‘chishi ham mazkur omilning himoyalovchi xarakterini belgilaydi;

— ekologik va ijtimoiy omillar: tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishi yoki yashash muhitining ekologik degradatsiyasi, shuningdek, ta’lim olish va malaka oshirish kabi ijtimoiy ehtiyojlar ham zamonaviy migratsiya oqimlarining muhim katalizatori bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu omillar ta’sirida yuzaga keladigan migratsiya hodisasi turli xalqaro-huquqiy hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda bugungi kunda ayollar migratsiyasiga turtki bo‘layotgan omillarga: ishsizlik, kambag‘allik, qarzдорlik, uy-joyga ega bo‘lmaslik va muhtojlik kabi iqtisodiy sabablar bilan bir qatorda, oiladagi kelishmovchiliklar, ajralishlar, ayollarning o‘zi hamda farzandlarining bilim olishga hamda rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini keltirish mumkin⁸⁴.

Shuningdek, BMT tomonidan 1958-yilda nashr etilgan terminologiya lug‘atida migratsiya demografik jarayon sifatida aholi harakatining eng muhim yo‘nalishi deb tavsiflanadi. Shuningdek, 1989-yilda bo‘lib o‘tgan Xalqaro migratsiya tashkilotining 59-sessiyasi doirasida ushbu hodisaga davlat rivojlanishining determinanti va ajralmas tarkibiy qismi sifatida baho

biron-bir jarayon yoki hodisani harakatga keltiruvchi kuch sifatida talqin etiladi. Omil tushunchasi biron-bir jarayon yoki hodisani harakatga keltiradigan kuch ma’nosida ishlatiladi.

⁸⁴ Abduramanov, X.X., Jaldasova, S.D., Qodirova, Z.A. Ayollar mehnat migratsiyasining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari. – Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2023. – B. 5-6.



berilgan⁸⁵. Mazkur yondashuvga ko'ra, migrant tushunchasi muayyan hududiy ko'chishni amalga oshirgan hamda xalqaro miqyosdagi institutsional ko'makka muhtoj bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi e'tirof etilgan. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlarini tahlil qilishda gender aspekti, xususan, ayollar migratsiyasi fenomeni alohida ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlashimiz joiz. Agar klassik yondashuvlarda migratsiya gender-neytral jarayon sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda tadqiqotchilar migratsiyani jinsiy tanlovga asoslangan murakkab ijtimoiy tizim sifatida e'tirof etmoqdalar. M. Boyd va E. Grieko kabi olimlarning fikricha, ayollar migratsiya traektoriyasining barcha bosqichlarida qaror qabul qilishdan tortib, qabul qiluvchi mamlakatdagi mehnat integratsiyasigacha bo'lgan jarayonda erkaklarga qaraganda ko'proq institutsional hamda ijtimoiy to'siqlarga duch kelmoqdalar. Tadrijiy nuqtai nazardan tahlil qilinganda, o'tgan asrning so'nggi choragiga qadar migratsiya nazariyalarida "gender ko'rliqi" fenomeni ustuvorlik qilganligi kuzatilgan⁸⁶. Ushbu yondashuv amaliyotda davlatlar tomonidan ayollar migratsiyasini tartibga solishda ko'pincha cheklovchi hamda diskriminatsion xarakterdagi institutsional to'siqlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, Nepal tajribasi shuni ko'rsatadiki, hukumat tomonidan 40 yoshgacha bo'lgan ayollarning xorijga chiqishi uchun oilasidagi erkaklar hamda mahalliy hokimiyat organlaridan ruxsatnoma olish talabi⁸⁷ aynan gender-noadekvat siyosatning natijasi hisoblangandi⁸⁸. Tadqiqotchi Bhagatning ta'kidlashicha, bunday taqiqlar migratsiya xavfsizligini ta'minlash o'rniga, ayollarni tizimli chetlatish hamda ularni noqonuniy kanallar orqali harakatlanishiga turtki berib, odam savdosi xavfini yanada oshirishi mumkin⁸⁹. Ushbu yondashuvni quvvatlagan holda ta'kidlashimiz joizki, ayollar migratsiyasiga nisbatan o'rnatiladigan sun'iy cheklovlar kutilgan natijani bermasligi mumkin, aksincha,

⁸⁵ Shu o'rinda nozik bir jihatga e'tibor berishimiz lozim. Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMgT — inglizcha IOM, International organization for migration) migratsiya sohasidagi yetakchi hukumatlararo tashkilot bo'lib, 2016-yildan buyon Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimiga kiruvchi ixtisoslashgan muassasa hisoblanadi.

⁸⁶ Marinucci R. Feminization of Migration? // REMHU: Revista Interdisciplinar da Mobilidade Humana. – Brasília: CSEM, 2007. – Ano XV, № 29. – P. 5-22. ISSN: 1980-8585.

⁸⁷ Bu talab bugungi kunda jamoatchilik e'tirozi sababli bekor qilingan.

⁸⁸ Safe migration for women // Nepal Times. - September 12, 2024.

⁸⁹ O'sha joyda.



noqonuniy yoki norasmiy migratsiya oqimlarining jadallashuviga bilvosita xizmat qiluvchi katalizator bo'lishi mumkin. Buning tasdig'i sifatida Indoneziya ma'lumotlari asosida o'tkazilgan so'nggi tadqiqot natijalarini keltirishimiz mumkin. Mazkur tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollar migratsiyasi sun'iy ravishda cheklanmagan muhitda ularning oiladagi mavqeyi sezilarli darajada oshib boradi. Xususan, migratsiyada bo'lgan ayollarning 5 yildan so'ng oilaviy jamg'armalarni boshqarish hamda muhim qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki 20% dan ko'proqqa oshganligi qayd etilgan⁹⁰. Bu esa migratsiyani nafaqat iqtisodiy omil, balki ayollarning huquq, imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning oiladagi ijtimoiy maqomini transformatsiya qilish vositasi sifatida baholash zarurligini ko'rsatmoqda.

Xususan, ayollar migratsiyasining o'ziga xos determinantlari, ijtimoiy-huquqiy himoya masalalari tizimli tadqiqot obyektidan tashqarida qolib, faqatgina ayrim tarqoq izlanishlarda yordamchi ma'lumot sifatida aks ettirilmoqda. Ayniqsa, xalqaro huquqiy hujjatlarda, xususan, 1993-yildagi "Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi deklaratsiya"ning 1-moddasida e'tirof etilganidek, shaxsga uning jinsi tufayli jismoniy, jinsiy yoki psixologik zarar yetkazadigan yoxud shunday zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakat, jumladan, erkinlikdan asossiz mahrum etish kabi genderga asoslangan zo'ravonlik holatlari ayol migrantlarning huquqiy himoyasizligini yanada kuchaytirmoqda. Natijada, xalqaro migratsiya huquqi va sotsiologiyasi uzoq yillar davomida bir tomonlama xarakterga ega bo'lib, ayol migrantlarning huquqiy maqomini belgilashda universal gender-neytral normalarning qo'llanilishi ularning real ehtiyojlarini to'liq qoplash imkonini bermagan. Biroq, zamonaviy bosqichda global harakatchanlikning tarkibiy o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan migratsiyaning ayollashuvi tendensiyasi an'anaviy qarashlarni konseptual jihatdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Mazkur tadqiqot oqimlarining gender jihatidan to'g'ri taqsimlanishi muhim ijobiy natijalarga ham olib kelishi mumkin ekanligini ko'rsatmoqda. Buni yuqorida ko'rsatilgan Nepal tajribasida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bu tajribasidagi ijobiy ko'rsatkichlarga monand, O'zbekistonda ham migratsiyadan qaytgan ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy rehabilitatsiya qilish tizimi yo'lga qo'yilganni ta'kidlashimiz lozim. Xususan, "Ayollar daftari" orqali migratsiyadagi ayollarning oilalariga moddiy yordam ko'rsatish va qaytgan

⁹⁰ Moving to power? Gender norms, women's migration and household decision making // NewsRx science daily. - February 27, 2026.



ayollarning bandligini ta'minlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ayol migrantlar soni barqaror ravishda ortib borayotgan bir sharoitda, ularning xorijda O'zbekiston Respublikasining to'liq huquqiy himoyasida ekanliklarini amalda his qilishlari va har qanday vaziyatda qonun ustuvorligi hamda adolat tamoyillari qo'llanilishini ta'minlash strategik ahamiyatga ega.

Oxirgi vaqtlarda Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa xorijiy davlatlarda ayol migrantlarning fojiali tarzda hayotdan ko'z yumishi yoki zo'ravonlik qurboniga aylanishi holatlari kuzatilmoqda. Bu esa xalqaro darajadagi huquqiy yordam va konsullik himoyasi mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini tug'dirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda migrant ayollarning shani, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi holatlarning ko'payishi ularni nafaqat jismoniy, balki kiber-makonda ham huquqiy himoya qilish masalasini o'rta tashlamoqda. Sharqiy mentalitetda ayol muhojirlarga nisbatan mavjud bo'lgan ayrim salbiy qarashlar hamda stereotiplar ularning ijtimoiy integratsiyasiga ham to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu omillar migratsiyadan qaytgan ayollarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini tiklash hamda kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik masalalarining naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi, nazarmizda. Binobarin, davlat tomonidan ko'rsatiladigan himoya nafaqat xorijda, balki migrant ayol o'z vataniga qaytganidan so'ng ham davomiy va tizimli xarakterga ega bo'lishi lozim.

Yuqorida keltirilgan Braziliya, Indoneziya, Lotin Amrikasi kabi davlatlar tajribasi migratsiyaga turtki bo'luvchi omillar hamda ayollar migratsiyasining iqtisodiy transformatsiyalardagi rolini yaqqol ko'rsatib berdi. Biroq, ushbu jarayonda ayol migrantlarning huquqiy himoyasini ta'minlashning yana bir o'ta muhim jihatini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston va MDH mamlakatlari uchun xorijdan qaytib kelgan muhojir ayollarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish masalasi strategik ahamiyatga ega. Agar ushbu jarayon davlat va jamiyat e'tiboridan chetda qolsa, quyidagi ijtimoiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:

- migratsiyadan qaytgan ayollarga nisbatan jamiyatdagi stereotiplar va "aybdorlik" tamg'asining bosilishi ularning huquqiy va ijtimoiy kamsitilishiga sabab bo'lishi mumkin;

- reintegratsiya jarayonidagi tizimli to'siqlar, oilaviy nizolar va iqtisodiy muvaffaqiyatsizliklar ayol migrantlar orasida chuqur depressiya hamda o'z joniga qasd qilish kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin;

- qaytib kelgan ayollarning mulkiy huquqlari, mehnat stajini tan olish,



ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish mexanizmlari takomillashmaganligi ularning huquqiy bo'shliqda qolib ketishiga olib kelishi mumkin.

Nazarimizda, migratsiya siyosati nafaqat xorijga ketish va u yerda bo'lish jarayonini, balki vataniga qaytgan ayollarning huquqiy maqomini kafolatlashni ham qamrab olishi shart. Aks holda, migratsiyaning iqtisodiy foydasi uning keltirib chiqaradigan ijtimoiy zararlari oldida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T.:“O'zbekiston”.
2. Ayollarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish to'g'risidagi deklaratsiya. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-dekabrdagi 48/104-sonli Rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan. – Nyu-York: BMT, 1993.
3. Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. IOM (Glossary on Migration. International Migration Law). – 2019. – B. 130-131.
4. Grieco E.M., Boyd M. Women and migration: incorporating gender into international migration theory. – Washington, DC: Migration Policy Institute, 2003. – P. 1-2.
5. Martinez J.P. El mapa migratorio de America Latina y el Caribe, las mujeres y el genero. – Santiago de Chile: CEPAL, 2003. – P. 19.
6. Xalqaro migratsiya tashkiloti. Qaytish migratsiyasi. Xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy o'ziga xos xususiyatlari. // PUB2021/016/R.
7. ZLOTNIK, Hania. International Migration Trends since 1980. // International Migration and the Millennium Development Goals. – UNFPA, p. 18.

INTERNET SAYTLAR

1. www.lex.uz
2. www.scopus.com
3. www.lexisnexis.com
4. www.iom.int
5. www.nepalitime